

O'qitiladigan fanlar

Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1. Hayot faoliyati xavfsizligi	Hayot faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.
2. Mehnat muhofazasi	Insonning ishlab chiqarish sharoitida sog'lom va xavfsiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan fan bo'lib, mehnatni muhofaza qilishning me'yoriy-huquqiy va tashkiliy masalalarini, ishlab chiqarish sanitariyasi, elektr xavfsizligi va texnika xavfsizligini ta'minlash asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.
3. Yong'in xavfsizligi asoslari	Bo'lajak mutaxassislarga turli tUSDagi yong'in va portlash yuz berganda inson hayotini, fuqarolarni, shuningdek moddiy boyliklarni muhofaza qilish, talafot olganlarga birlamchi tibbiy yordam berish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini shu bilan birgalikda moddiy boyliklarni yong'indan, nobud bo'lishdan saqlash tadbirlari va qoidalarini o'rgatishdan iborat.
4. Yo'nalishga kirish	Bo'lg'usi mutaxassislarni ta'lim olish jarayoni va kelgusi mehnat faoliyatini davom ettiruvchi korxonalar haqida tassavurga ega bo'lishiga yordam beradi. Talabalarni oliy ta'lim tizimiga ko'nikmalarini xosil qiladi.
5. Ish joylarini attestatsiyalash	bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisliklariga aholini va hududlarni xavfli ishlab chiqarish ob'yektlaridagi Ish joylarini attestatsiya qilish ta'minlash hamda davlat organlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini va aholini aholi xavfsizligining holati to'g'risida xabardor etish, Ishni tashkil qilishni tashkillashtirish, ish o'rni va asbob uskunalarining xavflilik jihatlarini aniqlash, xavfli ishlab chiqarish ob'yektidan foydalanuvchi tashkilot ish joylarini attestatsiya qilish qoidalarini o'rgatishdan iborat.
6. Avariya qutqaruv ishlari	Avariya va tabiiy ofatlar (zilzilalar, suv toshqinlari, to'fonlar, tog' ko'chkilari, yong'inlar va boshqa) sodir bo'lganda, ulardan kelib chiqqan asoratlarni bartaraf qilish, har xil noxush tabiiy va iqlimiy sharoitlarda, iqtisodiyot ob'ektlarini barqaror ishlashi masalalarini o'rganadi. Shu bilan bir qatorda insonlarni xavf xatarlarni oldini olish chora-tadbirlarini olib borish, kechiktirib bo'lmaydigan yordamlarni ko'rsatish bo'yicha talabalarga o'rgatishdan iborat.
7. Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik	Ishlab chiqarish jarayonlarida bo'ladigan xavfli faktorlar aniqlash, xavfsiz va sog'lom faoliyatning sharoitlarini yaratishni o'rgatish.

8.	Radiatsiya xavfsizligi	Bo'lajak mutaxasislarni kundalik ish faoliyatida va turli Favqulodda vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ionlashtiruvchi nurlanishlar manbalari xavfi, nurlanishlar turlari va ularning inson organizmiga ta'siri xususiyatlari, ulardan himoyalaniş tadbirlari bilan tanishtirishdir. Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda xavfsizlikni ta'minlash prinsiplarini, muhofazalanish metodlarini, dezaktivatsiya o'tkazish usullarini, radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda to'g'ri hatti - harakat qilishni o'rgatadi.
9.	Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi	Bo'lajak mutaxassislarga har qanday favqulodda vaziyatlarda (tabiiy, texnogen, ekologik tusdagi) fuqarolarni muhofaza qilish, talafot olganlarga birlamchi tibbiy yordam berish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini va moddiy boyliklarni zararlanishdan saqlash qoidalarini o'rgatishdan iborat.
10.	Ekologik xavfsizlik	Tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga xar doim rioya etish va ekologik halokatlarning oldini olishga qaratilgan sotsial - iqtisodiy, huquqiy xavfsizligi masalalarini o'rgatishdan iborat.
11.	Ergonomika	Ishlab chiqarish korxonalarida qulay ish sharoitlarini yaratish, kasb kasalliklarini kamaytirish, texnik vositalardan foydalanishda ergonomik omillarni e'tiborga olgan holda inson fiziologiyasi, anatomiyasi, antropometrik o'lchovlar bilan o'lchash vazifalari mutaxassislar tomonidan xavfsiz etilishi ko'zda tutishdan iborat.
12.	Fuqaro himoyasini tashkil qilish	Bo'lajak mutaxasislarni tabiiy, texnogen va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarda insonlarni xayotini va sog'lig'ini ta'minlash maqsadida himoya usullariga o'rgatishdir.
13.	Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari	Bo'lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.
14.	Texnogen risk va texnik tizimlarning ishonchlilig	talabalarga texnik tizimlar faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalanişga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.
